

O'ttiz yillik urush oqibatlari

Ernaqulov Umidjon Qo'l dosh o'g'li
Umidjonernaqulov@gmail.com
+998904444624

Allanazarov Samandar
Allanazarovsamandar10@gmail.com
+998942653323

Annotatsiya: O'ttiz yillik urush Yevropa tarixining buyuk urushlaridan biri edi. Bu diniy, siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlarni o'z ichiga olgan urush edi. Bu Yevropaning qiyofasini qaytarib bo'lmaydigan darajada o'zgartirdi. Davlatlarning hudud talashishi hamda o'z gegomonligini o'rantish maqsadida bo'lib o'tgan bu urush Yevropa tarixada juda katta urish nomi bilan iz qoldirdi. O'ttiz yillik urush eng uzoq va vayronkor mojarolardan biri edi. Shunigdek, tarixdagi eng qonli Yevropa diniy urushi. U 1618-1648 yillarda Markaziy Yevropada bo'lib o'tdi va sakkiz million talafotga sabab bo'ldi. Ushbu Maqola urushning sabab va oqibatlari Yevropa Davlatlari o'rtasidagi munosabatlar ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Katolik ligasi, chexiya,, Diniy urush, Daniya, Albert Valenshteyn. Kristian IV, Shved, Gustaf II, Shved-Fransiya, Vestfal tinchilik sulhi.

O'ttiz yillik urush nemis millati va Yevropaning Muqaddas Rim imperiyasida gegemonlik uchun bo'lgan harbiy mojaro bo'lib, u 1618 yildan 1648 yilgacha davom etdi. Urushning Oqibatlari barcha Yevropa mamlakatlariga ta'sir ko'rsatgan. Urush Germaniya imperiyasida protestantlar va katoliklar o'rtasidagi diniy to'qnashuv sifatida boshlandi, ammo keyinchalik Yevropada Gabsburg hukmronligiga qarshi kurashga aylandi. Mojaro Yevropadagi so'nggi yirik diniy urush bo'lib, Vestfaliyaning xalqaro munosabatlar tizimini vujudga keltirdi. Urushning to'rt bosqichi turli hil jarayonlarda kechadi. XVII asr boshlarida Germaniyada Reformatiya qarshi bo'lgan kuchlarning faolligi kuchaydi. Ular ayniqsa Mamlakatning shimoli-g'arbiy va janubiy qismlarida muvaffaqiyat qozondilar. Bir qator gersoglik, graflik va shaharlarda qaytadan Katolik cherkovining hukmronligi o'rnatildi. Protestantlarning O'z mavqelarini yo'qotishi faqat Germaniyada emas, butun Yevropada norozilikka sabab bo'ldi. Har ikkala tomon ham chet ellardagi

maslakdoshlaridan yordam olib turdi. Natijada Germaniyadagi ikkala lager o'rtasida harbiy mojaro va Germaniya ishlariga boshqa Yevropa davlatlarining faol aralashuvi xavfi tug'ildi. Germaniyadagi diniy-siyosiy holatning keskinlashuviga faqat ichki sabablar emas, Gabsburglar bilan Fransiya o'rtasida Yevropada gegemonlik uchun raqobatning kuchayishi ham sabab bo'ldi. Germanyadagi voqealar Yevropadagi kuchlar nisbatining o'zgarishiga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli bir tomondan Fransiya, ikkinchi tomondan Gabsburglar, uchinchi tomondan Gollandiya, Daniya, Shvesiya va pozitsiyasi oxirigacha noma'lum bo'lgan Angliyaning tashqi siyosatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Xullas, yetilib kelayotgan mojaro diniy sababga ega bo'lsada, undan har bir davlat o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatini ko'zlab siyosat yurgizayotgan edi. Urushga bevosita bahona 1618 yil may oyidagi Praga voqealari bo'ldi. Chexlarning XVI asrdayoq kafolatlangan va XVII asrda imperatorning maxsus yorlig'i bilan tasdiqlangan diniy va siyosiy huquqlarini poymol qilib, Gabsburglar hukumati protestantlar va milliy mustaqillik tarafdarlarini quvg'in qila boshladilar. Bunga javoban qurollangan olomon Pragadagi eski qirol saroyiga bostirib kirib, Gabsburglar tomonidan tayinlangan ikki hukumat a'zosini va kotibni derazadan uloqtirib tashladi. Urushning birinchi bosqichi 1618-1624 yillarda bo'lib o'tadi. 1618 yil May oyidagi praga voqialari urushning boshlanishiga bevosita Baxona bo'ldi desak adashmagan bo'lamic. "Ikkinchi Praga mudofaasi" deb nomlangan ushbu harakat haqiqatan ham urush e'lon qilindi va Chexiya mulkclarining Gabsburg hukmronligiga qarshi qo'zg'oloni boshlandi Imperator Metyu o'z kansleri, Venadagi kardinal, Melchior Klezl [de] ning maslahati bilan isyonchilarga amnistiya va muzokaralar taklif qildi. 1618 yil 28-iyulda Chexiyaga qarshi salib yurishini e'lon qilmoqchi bo'lgan Ferdinandning buyrug'i bilan Klezl hibsga olingan va Tirol qal'asiga joylashtirilgan. To'ntarish paytida imperator Metyu haqiqatdan Ferdinand qo'liga o'tgan hokimiyatdan chetlashtirildi Xuddi shu yilning kuzida graf Boku va Graf boshchiligidagi 15 ming kishilik imperiya armiyasi Dampier Chexiya Respublikasiga kirdi. Shuningdek, 1645 yilda shvedlar Venaga hujum qilishdi, ammo shaharni Muqaddas Rim imperiyasidan tortib ololmadilar. 1647 yilda Oktava Pikcolomini boshchiligidagi Xabsburg kuchlari shvedlar va frantsuzlarni hozirgi Avstriya hududidan qaytarishga muvaffaq bo'lishdi. Keyingi yil, Praga jangida - o'ttiz yillik urushdagi so'nggi muhim jang shvedlar Praga qal'asini Muqaddas Rim imperiyasi kuchlaridan tortib olishdi (va qal'adagi bebaho san'at kollektivini talontaroj qildilar) Bu vaqtga kelib faqat Avstriya hududlari Gabsburglar nazorati ostida

qoldi. 1648 yil davomida ziddiyatdagи turli tomonlar Vestfaliya tinchligi deb nomlangan bir qator shartnomalarni imzoladilar. Vestfal tinchlik sulhi. Chehiyada boshlangan urush butun Markaziy Yevropani qamrab olib o'ttiz yil davom etdi. 1648 yil Vestfaliyaning Myunster va Osnabryuk shaharlarida imzolangan tinchlik shartnomasi faqat o'n uch yillik urushga siyosiy yakun yasamasdan, Reformatsiya kuchlari bilan ularning dushmanlari o'rtaisdagi qaramaqshilikning butun bir davrini ham yakunladi. Tinchlik sulhi ikkala tomonning ham majburiy kelishuvining mahsuli bo'lib, Yevropa davlatlari tizimiga va Germaniyadagi holatga anchagina o'zgartishlar kiritdi. Vestfal sulhiga binoan Shvetsiya butun G'arbiy Pomeraniyani (Shtettin porti bilan), Sharqi Pomeraniyaning kichik qismini, Ryugen va Volin orollarini, shuningdek, Pomeran bo'g'ozini atrof qirg'oqdagi shaharlar bilan qo'shib oldi. Myunster shartnomasiga binoan uning suvereniteti, hududi va Antverpen shahri maqomi hal etildi. Shveysariya ittifoqi ham o'z suverenitetining e'tirofiga erishdi. Germaniyaning mayda knyazliklari hisobiga o'z yerlarini kengaytirib ham oldi. Vestfal sulhi yana ikki yuz yilga Germaniyaning siyosiy tarqoqligini belgilab berdi. 1648 yil 24 oktyabrda Myunsterda imzolangan tinchlik shartnomasi Germaniya tarixida eng uzoq davom etgan o'ttiz yillik urushga yakun yasadi. XULOSA Shimoliy va Shimoliy Sharqi Germanyada xaydaladigan yerlarning yarimidan ko'prog'i tashlandiq bo'lib qoli. o'ttiz yillik Urush sanoat Va savdoga ham o'z zararını yetkazdi. Shaxarlarning siyosiy mavqeyi ham tushub ketdi. Chet davlatlardan turli hil hom ashyolarning kirib kelishi Germanya sanoat firma va korxonalariga zarar keltirdi. O'ttiz yilik urushning oqibatlar Germanya Xalqida chuqr zulmatli iz qoldirdi.

REFERENCES

1. Shuhrat Ergashov 1-qisim. XVI-XVIII ASRLAR 221. B
2. Thirty years War. By History com. Editors.
3. Thirty years War. By History com. Editors.
4. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
5. Сураймон Амирқулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671

6. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғулашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.
7. Ҳайдаров Сулаймон Амирқулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «*Scientific Progress*» Scientific journal 1(1). 12-17.
8. С.А. Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(9). 458-461.